TO‘QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA OEKO-TEX 1000 STANDARTINI JORIY ETISHNING EKOLOGIK BARQARORLIK, IJTIMOIY MAS’ULIYAT VA RAQOBATBARDOSHLIK KO‘RSATKICHLARIGA TA’SIRINI BAHOLASH

Jumayeva Mahliyo Baxtiyor qizi
Namangan davlat texnika universisteti. Metrologiya, standartlashtirish va sifatni boshqarish kafedrasi tayanch doktoranti
Tel: +998952393232.
E-mail: Mahliyohainm94@gmail.com.
Mamadaliyeva Dildora Abdumalikovna
Namangan davlat texnika universisteti. Metrologiya, standartlashtirish va sifatni boshqarish kafedrasi PhD dotsenti
Tel: +99891183113.
E-mail: Mamadalieva@gmail.com.

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ishida to‘qimachilik sanoati korxonalarida OEKO-TEX 1000 standartini joriy etishning ekologik barqarorlik, ijtimoiy mas’uliyat va raqobatbardoshlik ko‘rsatkichlariga ko‘rsatadigan ta’siri kompleks tarzda o‘rganiladi. Muammo shundaki, O’zbekistonda joylashgan ko‘pgina to‘qimachilik sanoati korxonalari ishlab chiqarishda ekologik va ijtimoiy mezonlarni yetarlicha hisobga olmaydi, bu esa xalqaro bozordagi raqobatda ortda qolishiga olib kelmoqda. OEKO-TEX 1000 standarti esa ishlab chiqarish jarayonlarini nafaqat ekologik, balki ijtimoiy jihatdan ham barqarorlashtirishga qaratilgan zamonaviy yondashuv hisoblanadi. Tadqiqotda, ekologik ta’sirini o’rganish, ijtimoiy mas’uliyat talabini baholash, koroxnaning raqobatbardoshligini baholash va OEKO – TEX 1000 joriy qilgan korxonalarni statistik tahlil qilish uslublari qo‘llanildi. Jumladan, O‘zbekiston va xorijiy davlatlardagi OEKO-TEX 1000 sertifikatini olgan va olmagan korxonalar faoliyati o‘rganildi. Ishlab chiqarish chiqindilari hajmi, suv va energiya sarfi, xodimlar mehnat sharoiti va eksport hajmidagi o‘zgarishlar solishtirildi.

Kalit so’zlar: Oeko – tex 1000, ekologik barqarorlik, expert baholash, xalqaro bozor, korxona, to’qimachilik sanoati, raqobatbardoshlik, ijtimoiy masu’liyat.

Аннотация: В настоящей исследовательской работе комплексно изучается влияние внедрения стандарта Oeko-Tex 1000 на показатели экологической устойчивости, социальной ответственности и конкурентоспособности на предприятиях текстильной промышленности. Проблема в том, что многие предприятия текстильной промышленности, расположенные в Узбекистане, недостаточно учитывают экологические и социальные критерии при производстве, что приводит к отставанию в конкуренции на международном

ISSN 3030-3907

рынке. А стандарт Oeko-Tex 1000-это современный подход, направленный на стабилизацию производственных процессов не только экологически, но и социально. В исследовании использовались методы изучения воздействия на окружающую среду, оценки спроса на социальную ответственность, оценки конкурентоспособности предприятия и статистического анализа предприятий, внедренные Oeko – Tex 1000. В частности, была изучена деятельность предприятий Узбекистана и зарубежных стран, получивших и не получивших сертификат Oeko-Tex 1000. Сравнивались изменения объема производственных отходов, расхода воды и энергии, условий труда персонала и объемов экспорта.

Ключевые слова: Oeko-Tex 1000, экологическая устойчивость, экспертная оценка, международный рынок, предприятие, текстильная промышленность, конкурентоспособность, социальная ответственность.

Annotation: in this research work, the impact of the introduction of the OEKO-TEX 1000 standard in textile industry enterprises on indicators of Environmental Sustainability, Social Responsibility and competitiveness is studied in a complex way. The problem is that most textile industry enterprises located in Uzbekistan do not adequately consider environmental and social criteria in production, which leads to lagging competition in the international market. And the Oeko-TEX 1000 standard is a modern approach aimed at stabilizing production processes not only environmentally, but also socially. The study used techniques to study the environmental impact, assess the demand for social responsibility, assess the competitiveness of korokhna, and statistically analyze the enterprises that OEKO – TEX 1000 introduced. In particular, the activities of enterprises in Uzbekistan and foreign countries that received and did not receive the OEKO-TEX 1000 certificate were studied. Changes in the volume of production waste, water and energy consumption, working conditions of employees and export volumes were compared.

Keywords: Oeko-tex 1000, environmental sustainability, expert assessment, international market, enterprise, textile industry, competitiveness, social security.

Kirish

Global iqtisodiyotning zamonaviy bosqichida sanoat ishlab chiqarishining barqarorligi nafaqat iqtisodiy o‘sish, balki ekologik xavfsizlik, ijtimoiy mas’uliyat va inson salomatligi bilan bevosita bog‘liq holda qaralmoqda[1]. Xususan, yengil sanoat va uning yetakchi tarmog‘i hisoblangan to‘qimachilik sohasi hozirgi vaqtda global miqyosda eng ko‘p suv sarflaydigan, kimyoviy vositalardan foydalanadigan va chiqindilar ishlab chiqaradigan sanoat sohalaridan biri hisoblanadi[2]. Bunday holat ekologik xavflarni kuchaytirish bilan birga, xalqaro bozorlarda mahsulot

ISSN 3030-3907

raqobatbardoshligini pasaytirishga ham olib kelmoqda[3]. Shu sababli, ushbu sohada ekologik va ijtimoiy mezonlarga javob beradigan, ishlab chiqarish zanjirini optimallashtirishga qaratilgan xalqaro standartlarni joriy etish dolzarb masalaga aylangan[4].

OEKO-TEX 1000 standarti aynan shunday talablar asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, u to‘qimachilik sanoatida barqaror ishlab chiqarishni ta’minlash, chiqindilarni kamaytirish, resurslardan oqilona foydalanish, xodimlarning mehnat sharoitlarini yaxshilash hamda korxonalarning xalqaro bozorda ishonchli va ekologik mas’uliyatli ishlab chiqaruvchi sifatida tanilishiga xizmat qiladi[5]. Ushbu standart OEKO-TEX Assotsiatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u faqat tayyor mahsulot emas, balki butun ishlab chiqarish jarayonini – xomashyo tanlashdan tortib, to mahsulot tayyor bo‘lib chiqishigacha bo‘lgan barcha bosqichlarni qamrab oladi[6]. Shuningdek, unda ekologik xavfsizlik, energiya samaradorligi, chiqindi boshqaruvi, mehnat huquqlari, xodimlar salomatligi kabi ko‘rsatkichlarga qat’iy talablar qo‘yiladi[7].

OEKO-TEX 1000 standarti joriy etilishi orqali korxonalar ekologik jihatdan qulay ishlab chiqarish tizimini shakllantiradi. Bu nafaqat atrof-muhit muhofazasini ta’minlaydi, balki xalqaro sertifikatga ega bo‘lish orqali eksport salohiyatini oshiradi, xalqaro xaridorlar ishonchini qozonadi, xorijiy investitsiyalar uchun jozibadorlikni kuchaytiradi[8]. Xususan, Yevropa Ittifoqi davlatlari, AQSh va Yaponiya kabi rivojlangan mamlakatlar tomonidan to‘qimachilik mahsulotlarining ekologik tozaligi va ijtimoiy mas’uliyatli ishlab chiqarilishiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu bois, O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlar uchun ushbu standartlar asosida ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish strategik ahamiyat kasb etadi[9].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "To‘qimachilik sanoatini jadal rivojlantirish va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarorlarida ham ishlab chiqarishning ekologik mezonlarga muvofiqligini ta’minlash, xalqaro standartlarni joriy etish va mahsulot sifatini oshirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan[10]. Davlat tomonidan berilayotgan imtiyozlar, subsidiyalar va qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari aynan ana shu maqsad – barqaror va raqobatbardosh to‘qimachilik sanoatini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Tadqiqotda O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlardagi bir nechta to‘qimachilik korxonalari misolida empirik ma’lumotlar asosida tahlil olib boriladi[11]. Ushbu korxonalarda OEKO-TEX 1000 joriy etilganidan oldin va keyingi holatlar o‘rganilib, ularning o‘zaro solishtirmasi asosida standartning samaradorligi aniqlanadi. Bundan tashqari, ekspert fikrlari, amaliy intervyular, korxona hisobotlari va statistik ma’lumotlar asosida ilmiy xulosalar chiqariladi[12].


ISSN 3030-3907

Tadqiqotning yangiligi shundaki, u OEKO-TEX 1000 standartining nafaqat ekologik, balki ijtimoiy va iqtisodiy ko‘rsatkichlarga ham qaratilgan kompleks tahlilini taqdim etadi. Shu orqali to‘qimachilik sanoatida ekologik barqarorlik va ijtimoiy mas’uliyatni oshirish bilan birga, mahsulot raqobatbardoshligini oshirishga yo‘naltirilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi. OEKO-TEX 1000 standarti zamonaviy to‘qimachilik sanoatining global bozordagi muvaffaqiyat kalitlaridan biri bo‘lib, uning joriy qilinishi O‘zbekiston iqtisodiy rivojlanishida muhim o‘rin tutishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili: So‘nggi yillarda to‘qimachilik sanoatida ekologik va ijtimoiy mas’uliyatga e’tibor kuchaygani tufayli OEKO-TEX 1000 standarti xorijiy tadqiqotchilar tomonidan keng o‘rganilmoqda. Ushbu standart ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida ekologik xavfsizlik, xodimlar salomatligi va resurslardan samarali foydalanishni ta’minlashga yo‘naltirilgan. Hussein va Fenn OEKO-TEX 1000 va GOTS sertifikatlarini taqqoslab, bu standart chiqindi suvdagi zararli moddalarni 60% gacha kamaytirgani va eksport hajmini 25% ga oshirganini aniqlagan. Boström va Micheletti bu standartni "consumer-driven governance" doirasida tahlil qilgan. Ular so‘rovlar asosida Yevropa Ittifoqi xaridorlarining 60% dan ortig‘i OEKO-TEX belgili mahsulotlarni afzal ko‘rishini ko‘rsatgan. Kogg va Mont esa Shvetsiya, Germaniya va Niderlandiyadagi kichik korxonalarda OEKO-TEX 1000 joriy etilishi energiya sarfini 18% ga kamaytirganini va mehnat unumdorligini oshirganini aniqlaganlar. Textile Exchange va Sustainable Apparel Coalition bu standartni barqaror ta’minot zanjiri va investorlarga ishonch uyg‘otuvchi omil sifatida baholagan. Xorijiy tadqiqotlar OEKO-TEX 1000 ning ekologik xavfsizlik, ijtimoiy mas’uliyat va mahsulot raqobatbardoshligini oshirishdagi rolini isbotlagan. O‘zbekiston miqyosida esa bu mavzu hali yetarlicha o‘rganilmagan, ammo mavjud ilmiy ishlanmalarda bu yo‘nalish muhim deb ko‘rilmoqda. Ushbu tadqiqot aynan shu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi: Tadqiqotda qo‘llanilgan metodlar tanlovi mavzuning kompleks va ko‘p qirrali xususiyatlarini har tomonlama o‘rganish zaruratidan kelib chiqdi.

ISSN 3030-3907



1 – rasm. To'qimachilik sanoati korxonalariga OEKO – TEX 1000 standartini joriy qilishni baholash metodi

Ilmiy asoslangan yondashuv orqali mavjud muammolarni aniqlash, ularning sabablarini tahlil qilish va samarali yechimlarni ishlab chiqish imkonini berdi. Statistik tahlil, taqqoslash, tizimli yondashuv, eksperimental usullar hamda amaliy kuzatuvlar kombinatsiyasi tadqiqotning ishonchliligini oshirdi. Metodlarning bunday uyg'unligi orqali real holatni to'g'ri baholash va asosli xulosalar chiqarish imkoniyati yaratildi.


Tadqiqotda qo'llaniladigan metodlar mavzuning murakkab va ko'p qirrali jihatlarini yanada chuqurroq o'rganish imkonini beradi. Statistik tahlil, taqqoslash, tizimli yondashuv va amaliy kuzatuvlar kabi metodlar kompleks muammolarni aniqlash hamda ularni tahlil qilishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu metodlar yordamida kelgusida nafaqat mavjud muammolar aniqlanadi, balki ularning yechimlari ham ilmiy asosda ishlab chiqiladi. Shu tariqa, tanlangan metodologik yondashuv ilmiy tadqiqotlarning ishonchliligi va samaradorligini ta'minlaydi.

Muhokama va natijalar: OEKO-TEX Standard 1000 to'qimachilik sanoati korxonalarida ekologik va ijtimoiy mas'uliyatga asoslangan ishlab chiqarishni tashkil etishga qaratilgan xalqaro baholash tizimidir. Ushbu standartni korxonaga joriy qilishni baholash usuli korxonaning faoliyati qay darajada ekologik xavfsiz, resurs tejovchi va inson salomatligiga xavfsiz ekanligini aniqlash imkonini beradi. Baholash jarayonida ishlab chiqarishdagi chiqindilar, energiya va suv sarfi, xavfli kimyoviy moddalardan foydalanish holati, mehnat sharoitlari, ishchilarning xavfsizligi va ijtimoiy himoyasi kabi ko'rsatkichlar o'rganiladi.

Baholash natijasida korxona OEKO-TEX Standard 1000 talablariga mos keladigan ekologik va ijtimoiy barqaror ishlab chiqarishga ega bo'lsa, u xalqaro tan olingan sertifikatni olish huquqiga ega bo'ladi. Bu esa mahsulotni xorijiy bozorlarga erkin olib chiqish, ishonchli yetkazib beruvchi sifatida e'tirof etilish va

ISSN 3030-3907

raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, baholash orqali aniqlangan zaif jihatlar asosida korxonada doimiy takomillashtirish ishlari olib borilishi mumkin. Umuman olganda, bu baholash usuli korxonaning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.




2 – rasm. OEKO-TEX Standard 1000 ni to‘qimachilik sanoati korxonasiga joriy etishning ekologik ta’siri

OEKO-TEX Standard 1000 ni to‘qimachilik sanoati korxonasiga joriy etish ekologik barqarorlikni ta’minlash, atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirish va resurslardan oqilona foydalanishni yo‘lga qo‘yish nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega. Ushbu standart ishlab chiqarishning har bir bosqichida ekologik mezonlarga rioya qilinishini, zararli chiqindilarni minimallashtirishni va inson salomatligiga xavf tug‘dirmaydigan xomashyo va vositalardan foydalanishni talab qiladi.

OEKO-TEX 1000 – bu to‘qimachilik sanoati korxonalari uchun mo‘ljallangan xalqaro ekologik va ijtimoiy standart bo‘lib, uning joriy etilishi korxonada ekologik xavfsizlik, ijtimoiy mas’uliyat va barqaror rivojlanishni ta’minlaydi. Baholash jarayonida energiya sarfi, suv iste’moli, chiqindilar miqdori, kimyoviy moddalar bilan ishlash holati va havoga chiqarilayotgan gazlar miqdori o‘rganiladi. Standart talablariga ko‘ra, korxona energiyani tejovchi va kam ifloslantiruvchi texnologiyalarni qo‘llashi, chiqindilarni qayta ishlash tizimini joriy qilishi hamda xavfli kimyoviy moddalarni ekologik toza muqobillarga almashtirishi lozim.

ISSN 3030-3907



3 – rasm. OEKO-TEX 1000 ijtimoiy mas'uliyat talablarini baholash

Ushbu chora-tadbirlar ekologik xavfni kamaytirib, atrof-muhit va mahalliy aholi salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, ekologik toza bo'yoqlardan foydalanish oqava suvlarning tarkibini yaxshilaydi, suv va energiyani tejash esa tannarxni pasaytiradi. Bundan tashqari, OEKO-TEX 1000 sertifikatiga ega bo'lgan korxonalar xalqaro bozorda yuqori ishonchga ega bo'ladi, bu eksport salohiyatini oshiradi va brend obro'sini mustahkamlaydi.

Standartning ijtimoiy talablari xodimlar uchun xavfsiz va sog'lom mehnat sharoitlarini yaratish, adolatli ish haqi va bolalar mehnatini butunlay yo'q qilishni o'z ichiga oladi. Bu esa xodimlarning motivatsiyasini va mehnat unumdorligini oshiradi. Joriy etilgan OEKO-TEX 1000 standartining natijasida ishlab chiqarish samaradorligi oshadi, resurslardan tejamli foydalaniladi va mahsulot sifatiga yuqori talablar qo'yiladi. Natijada, korxona ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini saqlab qoladi.

OEKO-TEX 1000 standartini joriy qilgan korxonalar O'zbekistonda sifat, ijtimoiy mas'uliyat va barqarorlikni ta'minlab, sanoatning rivojlanishida yetakchi rol o'ynaydi, standartni joriy qilmagan korxonalar esa bu jarayonda orqada qolmoqda.

Xulosa: OEKO-TEX Standard 1000 to'qimachilik sanoatida ekologik va ijtimoiy mas'uliyatni oshirishga qaratilgan xalqaro baholash tizimidir. Standart chiqindilarni kamaytirish, suv va energiya sarfini optimallashtirish, xavfli kimyoviy moddalarni xavfsiz alternativalarga almashtirishni nazarda tutadi. U xavfsiz ish sharoitlarini ta'minlab, ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. OEKO-TEX 1000 sertifikati eksport imkoniyatlarini kengaytiradi, mijoz

ISSN 3030-3907

ishonchini mustahkamlaydi. O‘zbekistondagi korxonalar bu standart orqali yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishda va barqarorlikni ta’minlashda ilg‘or tajribalarni qo‘llamoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Smith J., Brown L. Sustainable Practices in the Textile Industry // Textile Journal. – 2020. – Vol. 15, No. 3. – P. 45–60.
2. Xasanov M. To‘qimachilik sanoatida ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanish // Kimyo va sanoat. – 2021. – №2. – B. 45–52.
3. Johnson M., Williams R. Environmental Impact Reduction in Textile Production // Journal of Cleaner Production. – 2019. – Vol. 230. – P. 1057–1068.
4. Rahimova G. OEKO-TEX standartining to‘qimachilik korxonalarida qo‘llanilishi // O‘zbekiston kimyo texnologiyalari jurnali. – 2020. – №4. – B. 35–41.
5. Davies K., Thompson S. Labour Conditions and Social Responsibility in the Textile Sector // International Labour Review. – 2021. – Vol. 160, No. 2. – P. 205–223.
6. Usmonov D. To‘qimachilik sanoatida resurslarni tejash texnologiyalari // Sanoat texnologiyalari va boshqaruv. – 2019. – №3. – B. 15–22.
7. Green P., Roberts A. Sustainable Resource Management in Textile Industry // Environmental Management Journal. – 2018. – Vol. 42, No. 4. – P. 345–359.
8. Karimova N. To‘qimachilikda chiqindilarni boshqarish tizimlari // Ekologik monitoring va boshqaruv. – 2021. – №1. – B. 27–34.
9. Lee C., Anderson J. Implementation of OEKO-TEX Standard 1000 in Textile Enterprises // Textile Science and Technology. – 2022. – Vol. 17, No. 1. – P. 12–25.
10. Tursunov S. To‘qimachilik korxonalarida energiya samaradorligini oshirish yo‘llari // Energetika va resurslarni boshqarish. – 2020. – №2. – B. 50–57.
11. Martin D., Evans H. Energy and Water Optimization in Sustainable Textile Production // Journal of Industrial Ecology. – 2020. – Vol. 24, No. 6. – P. 1134–1145.
12. Sultonova M. To‘qimachilik sanoatida ijtimoiy mas’uliyatni oshirish omillari // Ijtimoiy fanlar va siyosat. – 2022. – №5. – B. 40–47.

ISSN 3030-3907